

SOMONIYLAR DAVRIDA HADIS ILMI RIVOJI

Saidjonov Akmalidin Adhamjon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

Somoniylar davrida hadis ilmiga nisbatan rag'bat mavjud bo'lib, somoniy amirlar va ushbu sulolaning boshqa vakillari hadis va rivoyat ahli bilan yaxshi tanish bo'lganlar²⁵. Ularning o'zlari ham hadis eshitib, rivoyat qilishgan. Masalan, Ahmad ibn Asad Somoniy Sufyon ibn Uyayna, Ismoil ibn Aliya, Yazid ibn Horun, Mansur ibn Ammor kabi kishilardan hadis eshitgan. Undan esa o'g'llari Nasr, Ismoil va Abu Ya'qub Is'hoq hadis rivoyat qilishgan. Nasr ibn Ahmad otasidan, Solim ibn G'olib Samarqandiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Nasr Marvaziy singari kishilardan hadis eshitgan. Undan esa Sahl ibn Moduya rivoyat qilgan²⁶. Somoniylarning eng mashhur vaziri Abulfazl Muhammad ibn Ubaydulloh Bal'amiy Marv, Buxoro, Naysobur, Samarqand va Saraxsda o'z davrining muhaddislaridan ko'plab hadislar eshitgan²⁷.

Nuh ibn Nasrning vaziri Abulfazl Muhammad ibn Muhammad Marvaziy Sulamiy bir vaqtning o'zida hanafiy faqih va muhaddis ham edi²⁸. Somoniylar sipohsolori Abu Ali Simjuriy faqih va muhaddis Abulqosim Hasan ibn Ahmad Ko'histoniydan (393/1003-yili vafot etgan) hadis bo'yicha tahsil olgan²⁹. Somoniylarning boshqa bir sipohsolori Foiq Xossa (389/999-yili vafot etgan) Buxoro va Marvda Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Xanb kabi ustozdan hadis eshitgan³⁰. Foiq 350/961-yili Buxoroda hadis majlisi o'tkazgan. Abu Muhammad Hasan ibn Ahmad Buxoriy Dinoriy somoniylar sipohsolori Toshning qo'l ostida faoliyat yuritgan. U 378/995-yili Jurjonda ko'plab hadislar rivoyat qilgan³¹.

Sijiston amiri Abu Ahmad Xalaf ibn Ahmad Sijziy (399/1009-yili vafot etgan) ham hadis ilmi olimi bo'lib, u Xuroson, Iroq va Hijozda hadis ilmini o'rgangan. U 353/964-yili Naysoburda bo'lgan vaqtda huzurlariga hadis ilmi talabalari kelgan. Hokim Naysoburiy ham Buxoroda Xalaf ibn Ahmad bilan uchrashib, unga "Doruqutniy"ni o'qib, undan "al-Muvatto"ni (الموطأ) o'rgangan³².

²⁵ Muhammad ibn Ahmad Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim. Leiden: Brill, 1906. B. 261.

²⁶ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1392/1976. J. 7. B. 24–25.

²⁷ Tojuddin Abdulvahhob ibn Taqiyuddin Subkiy. Tabaqot ash-shofe'iyah al-kubro. Qohira: Dor Hijr, 1413/1992. J. 3. B. 188.

²⁸ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1397/1977. J. 8. B. 178–192.

²⁹ Muhammad ibn Abdulloh Hokim Naysoburiy. Talxis Tarixi Naysobur. Tehron: Kitobxonai Ibn Sino, 1337/1919. B. 158.

³⁰ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1385/1965. J. 5. B. 18.

³¹ Abulqosim Hamza ibn Ibrohim Sahmiy. Tarixi Jurjon. Bayrut: Olam al-kutub, 1407/1987. B. 190.

³² Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1392/1976. J. 7. B. 81–83.

Somoniylar saroyi xizmatchilaridan ayrimlari ham hadis ilmidan xabardor bo'lgan. Amir Nasr ibn Ahmad ibn Ismoilning g'ulomlaridan Abu Solih Mansur ibn Etmish Turkiy (370/981-yili vafot etgan) va Abulaskar Kofur ibn Abdullohiy Kuhandiziy (vafoti 376/986 yil) hamda amir Nuh ibn Nasrning g'ulomi Is'hoq ibn Takinak Hamidiy³³ shular jumlasidandir.

Abu Solih Xalaf ibn Muhammad Xayyom Buxoriy (361/972-yili vafot etgan) buxorolik muhaddislardan edi³⁴. Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ahmad Mustamliy Balxiy (376/986-yili vafot etgan) ham hadis ilmi olimi bo'lib, u balxlik muhaddislar va ularning tarixidan yaxshi xabardor bo'lgan³⁵.

Somoniylar davrida sahih hadislar jamlanishi davom ettirildi. Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning (256/870-yili vafot etgan) "al-Jome' as-sahih" (الجامع الصحيح) to'plami va Muslim ibn Hojjoj Naysoburiyning (261/875-yili vafot etgan) "as-Sahih al-Musnad" (الصحيح المسند) to'plami ahli sunna orasida birinchi va eng nufuzli sahih hadislar to'plami sifatida shuhrat qozongan.

Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ma'qil Sonjanliy Nasafiy (295/908-yili vafot etgan) ham "al-Musnad" (المسند) yozgan va u "Sahihi Buxoriy"ni muallifidan rivoyat qilgan oxirgi shaxs sanaladi³⁶. Buxoroning Firabr qishlog'ida yashovchi Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Firabriy (320/941-yili vafot etgan) Buxoriyning shogirdi va "Sahih"ning buyuk roviylaridan biri bo'lib, ko'plab muhaddislar undan hadis o'rganishgan³⁷.

Firabriydan 314–320/926–941-yillar oralig'ida "Sahihi Buxoriy"ni o'rganganlar orasida shofe'iy faqih va muhaddis Abu Zayd Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulloh Foshoniy Marvaziy (371/981-yili vafot etgan)³⁸, samarqandlik Abu Ali Ismoil ibn Muhammad Hojibiy (381/991-yili vafot etgan) va Abu Muhammad Abdulloh ibn Ahmad Xatib Saraxsiy (381/991-yili vafot etgan)³⁹, balxlik muhaddis Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ahmad Mustamliy Balxiy (381/991-yili vafot etgan)⁴⁰ va marvlik faqih,

³³ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1399/1979. J. 10. B. 526.

³⁴ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1385/1965. J. 5. B. 251.

³⁵ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1400/1980. J. 12. B. 244.

³⁶ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1392/1976. J. 7. B. 33–34.

³⁷ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1399/1979. J. 10. B. 170–171.

³⁸ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1399/1979. J. 10. B. 133–134, 170–171.

³⁹ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1384/1965. J. 4. B. 6; 1399/1979. J. 10. B. 170–171.

⁴⁰ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1399/1979. J. 10. B. 171; 1401/1981. J. 12. B. 244.

adib va muhaddis Abu Haysam Muhammad ibn Makkiy Kushmehaniylar (389/999-yili vafot etgan)⁴¹ mashhurdir.

Bu o'rinda "Sahihi Buxoriy"ning birinchi sharhi, ya'ni faqih va muhaddis Abu Sulaymon Hamd ibn Muhammad ibn Ibrohim Xattobiy (388/998-yili vafot etgan)ning "A'lam al-hadis" (أعلام الحديث في شرح صحيح البخاري) asarini ham eslatib o'tish lozim. Xattobiy ushbu asarni balxliklarning iltimosiga binoan va asosan Ibrohim ibn Ma'qil Nasafiy rivoyatiga tayangan holda yozgan⁴².

"Sahihi Buxoriy" va "Sahihi Muslim" to'plamlari hadis ilmida "mustaxraj" nomidagi kitoblarning yaratilishiga ham asos bo'lgan. Bu turdagi kitoblarda muhaddis o'zidan oldingi boshqa bir muhaddisning kitobini olib, uning hadislarini o'zi topgan boshqa roviylar yo'li bilan tuzib chiqqan. Bu turdagi dastlabki asarlardan biri Abu Ja'far Ahmad ibn Hamdon Hayyir Naysoburiyning (311/923-yili vafot etgan) "as-Sahih"i bo'lib, u "Sahihi Muslim"ga mustaxraj qilingan⁴³.

"Sahihi Muslim"ga yozilgan mustaxrajlardan yana biri muhaddis Abu Avona Ya'qub ibn Is'hoq Isfaroyiniy Naysoburiyning (416/1025-yili vafot etgan) "al-Musnad as-sahih"idir⁴⁴. Shuningdek, Abu Homid Ahmad ibn Muhammad ibn Hasan Naysoburiy (325/937-yili vafot etgan)⁴⁵, kichik Balozuriy nomi bilan tanilgan Abu Muhammad Ahmad ibn Muhammad Balozuriy Tusiy (339/950-yili vafot etgan)⁴⁶, Abu Nazr Muhammad ibn Muhammad Tusiy (344/955-yili vafot etgan)⁴⁷ va Abu Valid Hasson ibn Muhammad Qarshiy Naysoburiy (349/960-yili vafot etgan)⁴⁸ ham "Sahihi Muslim"ga mustaxraj yozishgan.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ya'qubiy Shayboniy (344/955-yili vafot etgan) Abulabbos Sarrojning iltimosiga ko'ra, "Sahihi Muslim"ga mustaxraj yozgan. U shuningdek, "al-Mustaxraj ala-s-Sahihayn" nomli asarni ham bitgan⁴⁹. Naysoburlik mashhur muhaddis Abu Ali Husayn ibn Muhammad Mosarjisiy (365/976-yili vafot

⁴¹ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oni. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoni nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usoniya, 1399/1979. J. 10. B. 171; 1400/1980. J. 11. B. 116-117.

⁴² Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oni. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoni nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usoniya, 1385/1965. J. 5. B. 158-159.

⁴³ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. Shu'ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 14. B. 299.

⁴⁴ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmia, 1403/1983. B. 329.

⁴⁵ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. Shu'ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 15. B. 37.

⁴⁶ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. Shu'ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 16. B. 36.

⁴⁷ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. Shu'ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 15. B. 490.

⁴⁸ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam'oni. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoni nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usoniya, 1399/1979. J. 10. B. 371.

⁴⁹ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. Shu'ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 15. B. 466-468.

etgan)⁵⁰ va Abu Ahmad Muhammad ibn Muhammad Karobisiy Naysoburiy (378/988-yili vafot etgan)⁵¹ ham “Sahihayn”ga mustaxraj yozgan olimlardandir. Hirotlik muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad Zabbiy Usmiy (378/998-yili o‘ldirilgan) “Sahihi Buxoriy”ga mustaharj yozgan⁵². Somoniylar davrida “Sahih”ga oid so‘nggi mustahrajlardan birini yozgan nishopurlik muhaddis Abu Bakr ibn Abdulloh Javzaqiy Shayboniy (388/998-yili vafot etgan)ni alohida ta’kidlash lozim⁵³.

Somoniylar davrida sahihayndagi hadislarni bir orada jamlash ishlari ham amalga oshirilgan bo‘lib, bulardan Abu Bakr Javzaqiyning “al-Muttafaq al-kabir”⁵⁴, Ibn Muhammad ibn Ya’qub Shayboniyning (344/955-yili vafot etgan) “al-Muxtasar as-sahih al-muttafiqun alayh” asarlari⁵⁵ mashhurdir.

Bu davrda yaratilgan sahih hadis to‘plamlariga quyidagilarni ham kiritish mumkin: faqih va muhaddis Abu Bakr Muhammad ibn Is’hoq Sulamiy Naysoburiyning (311/923-yili vafot etgan) “Sahih Ibn Xuzayma” nomi bilan tanilgan “Muxtasar al-muxtasar as-Sahih ani-n-nabiy” asari, muhaddis Abu Hafs Umar ibn Muhammad Bujayriyning (311/923-yili vafot etgan) “al-Musnad val-jome’ as-sahih” asari⁵⁶, muhaddis Abu Imron Muso ibn Abbos Juvayniyning (323/935-yili vafot etgan) “al-Musnad as-sahih” asari⁵⁷, Ibn Xuzaymaning shogirdi, faqih va muhaddis Muhammad ibn Hibboniy Bustiyning (354/956-yili vafot etgan) “al-Anvo’ va-t-taqosim” asari⁵⁸.

Somoniylar hukmronligining so‘nggi yillarida hadis sohasida “sunan” asarlarning mavqei ma’lum darajada ortdi. Bu yo‘nalishdi Abu Ahmad Muhammad ibn Muhammad Karobisiy Naysoburiy (378/988-yili vafot etgan) Abu Iso Termiziyning “Sunan”iga mustaxaraj yozgan⁵⁹. Abu Sulaymon Ahmad ibn Muhammad Xattobiy Bustiy (388/998-yili vafot etgan) esa balxliklarning iltimosiga binoan “Sunani Abu Dovud”ga “Ma’olim as-sunan” nomi bilan sharh yozgan⁶⁰.

⁵⁰ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam’oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1401/1981. J. 12. B. 36–37.

⁵¹ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiyy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1403/1983. B. 388–389.

⁵² Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a’lom an-nubalo. Shu’ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 16. B. 380–381.

⁵³ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a’lom an-nubalo. Shu’ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 16. B. 493–494.

⁵⁴ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a’lom an-nubalo. Shu’ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 16. B. 493–494.

⁵⁵ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a’lom an-nubalo. Shu’ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 15. B. 468.

⁵⁶ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam’oniyy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniyya, 1383/1963. J. 2. B. 96.

⁵⁷ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a’lom an-nubalo. Shu’ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 15. B. 235–236.

⁵⁸ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a’lom an-nubalo. Shu’ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 16. B. 94.

⁵⁹ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiyy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1403/1983. B. 388–389-бетлар.

⁶⁰ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiyy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1403/1983. B. 404–405.

Somoniylar davrida hadis ilmida “musnad” yozuvchilar ham mavjud edi. Bu turdagi to‘plamlarda roviydan to birinchi shaxsgacha bo‘lgan hadislar matni Payg‘ambar (s.a.v.)ga yetgungacha to‘liq zikr qilinishi lozim hisoblangan. Qabboniy nomi bilan tanilgan Abu Ali Husayn ibn Muhammad Naysoburiy (289/902-yili vafot etgan) musnadning birinchi mualliflaridandir⁶¹. Undan keyin Nasr ibn Ahmad ibn Nasr Kindiy Bag‘dodiy (293/1003-yili vafot etgan) tilga olish mumkin⁶². “Sahihi Buxoriy”ning roviylaridan Abu Is‘hoq Ibrohim ibn Ma‘qil Sonjaniy Nasafiy (295/908-yili vafot etgan) ham “al-Musnad al-kabir”ni yozgan. Abu Ya‘qub Is‘hoq ibn Ibrohim Naysoburiy (303/916-yili vafot etgan)⁶³, Abulabbos Hasan ibn Sufyon Shayboniy Nasaviy (303/916-yili vafot etgan), Abulabbos Muhammad ibn Is‘hoq Sarroj Saqafiy Naysoburiy (313/925-yili vafot etgan)⁶⁴ va Abdulloh Muhammad ibn Aqil Balxiylar (316/928-yili vafot etgan)⁶⁵ ham musnad yozishgan.

Hanafiylilik faqih, muhaddis Abu Muhammad ibn Muhammad Xorisiy Kaloboziy Buxoriy (340/951-yili vafot etgan) “Musnadu Abi Hanifa”ni tuzgan⁶⁶, shuningdek, muhaddis Abu Said Haysam ibn Kulayb Aqiliy Shoshiy (335/947-yili vafot etgan)⁶⁷ ham bitta musnadga ega. Abu Abdulloh ibn Axram Naysoburiy nomi bilan tanilgan Muhammad ibn Ya‘qub Shayboniy (344/955-yili vafot etgan)⁶⁸ ham “al-Musnad al-kabir” asarini yaratgan. Doruqutniy⁶⁹ va Abu Ali Husayn ibn Muhammad Mosarjisiy (365/976-yili vafot etgan)⁷⁰ o‘zlarining “Musnad al-kabir” nomli asarlarini tuzganlar.

Somoniylar davri hadis ilmida “ilm ar-rijol” va “ilal al-hadis” yo‘nalishida ham sezilarli ishlar amalga oshirilgan. Abu Ali Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Balxiyning (295/908-yili vafot etgan) “al-Ilal”i⁷¹ va Abu Is‘hoq Ibrohim ibn Abu Tolib Muhammad Naysoburiyning (295/908-yili vafot etgan) “al-Ilal”i⁷² ushbu yo‘nalishda yozilgan ilk

⁶¹ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403/1983. B. 300.

⁶² Ahmad ibn Ali Xatib Bag‘dodiy. Tarixi Bag‘dod. Bayrut: Dor al-kitob al-arabiy, 1985. J. 413. B. 293–294.

⁶³ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam‘oniy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1392/1976. J. 7. B. 33–34.

⁶⁴ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a‘lom an-nubalo. Shu‘ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 14. B. 157.

⁶⁵ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403/1983. B. 314.

⁶⁶ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a‘lom an-nubalo. Shu‘ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 15. B. 425.

⁶⁷ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam‘oniy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1397/1977. J. 8. B. 16.

⁶⁸ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Tarix al-islom. Umar Abdusalom Tadmuriy nashri. Bayrut: Dor al-kitob al-arabiy. J. 25. B. 312.

⁶⁹ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam‘oniy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1400/1980. J. 12. B. 36–37.

⁷⁰ Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam‘oniy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniyy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1402/1982. J. 13. B. 12.

⁷¹ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a‘lom an-nubalo. Shu‘ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 13. B. 547–551.

⁷² Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a‘lom an-nubalo. Shu‘ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 13. B. 547–551.

asarlardandir. Ibn Axram (344/955-yili vafot etgan) ham ilal va rijol olimlaridan sanalgan⁷³.

“G‘arib al-hadis”da muallif hadisning og‘ir va g‘arib so‘zlarini izohlashga e‘tibor beradi. Abu Ubayd Qosim ibn Salom Hiroviy (224/839-yili vafot etgan), Ibn Qutayba Abdulloh ibn Muslim Dinovariy (276/889-yili vafot etgan) va Abu Sulaymon Ahmad ibn Muhammad Xattobiy (276/998-yili vafot etgan) ushbu yo‘nalishning mashhur olimlaridandir⁷⁴. Bular orasida Xattobiyning “G‘arib al-hadis” asari alohida ahamiyatga ega, chunki u o‘zidan oldingi asarlarni ancha takomillashtirgan.

“Arba’in” hadis ilmida mavjud bo‘lgan yana bir yo‘nalishning nomi bo‘lib, unda muallif o‘zi tomonidan muhim deb hisoblangan qirqta hadisni olib, ularni sharhlashga harakat qilgan. Somoniylar davrida nasolik muhaddis Abulabbos Shayboniy (303/916-yili vafot etgan)⁷⁵ va Abu Amr Muhammad ibn Ahmad Bahiriy Naysoburiy (396/1006-yili vafot etgan) “Arba’in” nomli asar yozganlar⁷⁶.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Somoniylar davrida mamlakatda islomiy ilmlar qatori hadis ilmi ham taraqqiy etdi. Bu davrda juda ko‘plab muhaddis olimlar yetishib chiqdi hamda hadis ilmi rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Somoniylar davrida hadis ilmiga nisbatan rag‘bat mavjud bo‘lib, somoniy amirlar va ushbu sulolaning boshqa vakillari hadis va rivoyat ahli bilan yaxshi tanish bo‘lganlar. Ularning o‘zlari ham hadis eshitib, rivoyat qilishgan. Masalan, Ahmad ibn Asad Somoniy Sufyon ibn Uyayna, Ismoil ibn Aliya, Yazid ibn Horun, Mansur ibn Ammor kabi kishilardan hadis eshitgan. Undan esa o‘g‘llari Nasr, Ismoil va Abu Ya‘qub Is‘hoq hadis rivoyat qilishgan. Nasr ibn Ahmad otasidan, Solim ibn G‘olib Samarqandiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Nasr Marvaziy singari kishilardan hadis eshitgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Muhammad ibn Ahmad Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma‘rifat al-aqolim. Leiden: Brill, 1906.
2. Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur Tamimiy Sam‘oniy. Al-Ansob. Abdurahmon ibn Yahyo Muallimiy Yamoniy nashri. Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1392/1976.
3. Tojuddin Abdulvahhob ibn Taqiyuddin Subkiy. Tabaqot ash-shofe‘iya al-kubro. Qohira: Dor Hijr, 1413/1992.

⁷³ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a‘lom an-nubalo. Shu‘ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985. J. 15. B. 468.

⁷⁴ Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad Sa‘olibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr. Bayrut: Dor al-kitob al-ilmiya, 1403/1983. J. 4. B. 383.

⁷⁵ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403/1983. B. 308.

⁷⁶ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403/1983. B. 420.



4. Muhammad ibn Abdulloh Hokim Naysoburiy. Talxis Tarixi Naysobur. Tehron: Kitobxonai Ibn Sino, 1337/1919.
5. Abulqosim Hamza ibn Ibrohim Sahmiy. Tarixi Jurjon. Bayrut: Olam al-kutub, 1407/1987.
6. Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403/1983.
7. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qoymoz Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. Shu'ayb Arnovut nashri. Bayrut: Muassasat ar-risola, 1405/1985.